

MUSULMON OLIMLARINING DINLARNI TADQIQ ETISHDAGI USHLUBLARI

METHODOLOGICAL APPROACHES OF MUSLIM SCHOLARS TO THE STUDY OF RELIGIONS

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ МУСУЛЬМАНСКИХ УЧЁНЫХ К ИЗУЧЕНИЮ РЕЛИГИЙ

IBROHIMOVA Muborakxon Mussoxon qizi

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

Fourth-year student of Religious Studies

at the Faculty of Islamic Studies

11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: muborakxonibrohimova686@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2026/1/8

Annotatsiya. Ushbu maqolada musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi ushlublari tarixiy, nazariy va metodologik jihatdan keng qamrovda tahlil qilingan. Tadqiqotda islom ilmiy an'anasida shakllangan dinshunoslik yondashuvlarining manbalari, rivojlanish bosqichlari hamda ularning zamonaviy dinshunoslik fanidagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Xususan, Qur'on va hadisda boshqa dinlarga munosabat masalasi, ilk musulmon olimlarining ilmiy xolislik va bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan qarashlari tadqiq etilgan.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Shahrisoniy, Ibn Hazm, Farobiy, Ibn Sino kabi buyuk musulmon mutafakkirlarining asarlari asosida tarixiy-taqqoslash, manbashunoslik, filologik-tahliliy, ratsional-falsafiy, empirik va fenomenologik ushlublarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida qo'llangan empirik va qiyosiy metodlar, Shahrisoniyning «Al-Milal va-n-nihal» asaridagi tizimli tasniflash uslubi, Ibn Hazmning matnshunoslikka asoslangan tanqidiy yondashuvi alohida ilmiy tahlil qilingan. Musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi ushlublari G'arb dinshunosligi metodlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning zamonaviy diniy tadqiqotlar, konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglikni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari bugungi globallashuv sharoitida diniy ekstremizm va mutaassiblikka qarshi ilmiy yondashuvlarni rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqola dinshunoslik, islomshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida tahsil olayotgan talabalar, tadqiqotchilar hamda mutaxassislar uchun ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu maqolada musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi ushlublari keng qamrovli va ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotda islom

ilmiy an'anasida shakllangan metodologik yondashuvlar, xususan, isnod va rivoyat tanqidi, usul al-fiqhga tayangan matn tahlili, maqosid ash-shari'a konsepsiyasi, bahs va munozara madaniyati hamda polemik adabiyot an'analari batafsil yoritilgan. O'z navbatida, dinlarni tarixiy, ijtimoiy, huquqiy va siyosiy kontekstda o'rganishga asoslangan yondashuvlar ham tahlil qilingan. Maqolada musulmon olimlarining boshqa dinlarga oid ma'lumotlarni asl manbalar orqali o'rganishga intilgani, ilmiy xolislik, mantiqiy dalillash va metodologik aniqlik tamoyillariga amal qilgani asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida dinlarning jamiyat hayotidagi o'rni, diniy ta'limotlarning ijtimoiy va axloqiy funksiyalari ham e'tiborga olingan. Maqola musulmon dinshunoslik merosining zamonaviy qiyosiy dinlar tadqiqoti va umumiy dinshunoslik fanini rivojlantirishdagi nazariy va metodologik ahamiyatini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: musulmon olimlari, dinlarni tadqiq etish, dinshunoslik metodologiyasi, manbashunoslik, Abu Rayhon Beruniy, Shahrisoniy, Ahmad Shalabiy, zamonaviy musulmon olimlarining yondashuvlari.

Annotation: This article provides a comprehensive historical, theoretical, and methodological analysis of the methods employed by Muslim scholars in the study of religions. The research examines the sources and stages of development of approaches to the study of religions that emerged within the Islamic scholarly tradition, as well as their role and significance in contemporary religious studies. Particular attention is given to the issue of attitudes toward other religions in the Qur'an and Hadith, as well as to the views of early Muslim scholars, which were grounded in the principles of scholarly objectivity and tolerance.

Furthermore, based on the works of great Muslim thinkers such as Abu Rayhan Beruni, Al-Shahrastani, Ibn Hazm, Al-Farabi, and Ibn Sina, the essence and characteristics of various methodological approaches—including historical-comparative, source-based, philological-analytical, rational-philosophical, empirical, and phenomenological methods—are examined and elucidated. Special scholarly attention is given to the empirical and comparative methods employed in Abu Rayhan al-Biruni's *Kitab al-Hind* (India), the systematic classification approach presented in al-Shahrastani's *Al-Milal wa al-Nihal*, and the text-based critical methodology of Ibn Hazm. The methods employed by Muslim scholars in the study of religions are comparatively analyzed alongside the methodologies of Western religious studies, and their significance for contemporary religious research, interfaith dialogue, and the promotion of religious tolerance is substantiated. The findings of the study possess important theoretical and practical value for the development of scholarly approaches aimed at countering religious extremism and fanaticism in the context of contemporary globalization.

This article serves as a scholarly and methodological resource for students, researchers, and specialists in the fields of religious studies, Islamic studies, and the social and humanitarian sciences. Moreover, this article provides a comprehensive and systematic analysis of the methods employed by Muslim scholars in the study of religions. The

research thoroughly examines methodological approaches developed within the Islamic scholarly tradition, including isnad and narrative criticism, text analysis based on Usul al-Fiqh, the Maqasid al-Shari'a framework, the culture of scholarly debate and discussion, as well as the traditions of polemical literature.

In addition, approaches based on the study of religions within historical, social, legal, and political contexts are also analyzed. The article demonstrates how Muslim scholars endeavored to examine information about other religions through original sources, adhering to principles of scholarly objectivity, logical reasoning, and methodological rigor. The research further considers the role of religions in social life, as well as the social and ethical functions of religious teachings. The study highlights the theoretical and methodological significance of the Muslim scholarly tradition in the development of contemporary comparative religion research and the broader field of religious studies.

Key words: Muslim scholars, study of religions, methodology of religious studies, source studies, Abu Rayhan al-Biruni, al-Shahrastani, Ahmad Shalabi, approaches of contemporary Muslim scholars

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются методы исследования религий, применявшиеся мусульманскими учёными, в историческом, теоретическом и методологическом аспектах. В исследовании рассматриваются источники и этапы развития религиоведческих подходов, сформировавшихся в рамках исламской научной традиции, а также их значение для современной науки о религии. Особое внимание уделяется вопросу отношения к другим религиям в Коране и хадисах, а также взглядам ранних мусульманских учёных, основанным на принципах научной объективности и религиозной толерантности.

Кроме того, на основе трудов выдающихся мусульманских мыслителей – Абу Райхана Бируни, аш-Шахристани, Ибн Хазма, аль-Фараби и Ибн Сины – раскрывается сущность историко-сравнительного, источниковедческого, филологического, рационально-философского, эмпирического и феноменологического методов. Отдельно анализируются эмпирический и сравнительный методы, применённые Абу Райханом Бируни в его труде «Индия», системный метод классификации, использованный аш-Шахристани в произведении «Аль-Милал ва-н-Нихал», а также критический текстологический подход Ибн Хазма. Методы исследования религий мусульманскими учёными сопоставляются с методологическими подходами западного религиоведения, и обосновывается их значение для современных религиоведческих исследований, межконфессионального диалога и укрепления религиозной толерантности.

Результаты исследования показывают, что данные подходы имеют важное теоретическое и практическое значение для развития научных методов противодействия религиозному экстремизму и фанатизму в условиях глобализации. Статья служит научно-методическим

источником для студентов, исследователей и специалистов в области религиоведения, исламоведения и социально-гуманитарных наук.

Также в статье подробно рассматриваются методологические подходы, сформировавшиеся в исламской интеллектуальной традиции, в частности критика иснада и преданий, анализ текстов на основе усуль аль-фикха, концепция мақасид аш-шариа, культура научных дискуссий и полемическая литературная традиция. Анализируются также подходы, основанные на изучении религий в их историческом, социальном, правовом и политическом контекстах. В статье показано, что мусульманские учёные стремились изучать другие религии на основе оригинальных источников, придерживаясь принципов научной объективности, логической аргументации и методологической точности. В ходе исследования также учитывается роль религии в общественной жизни, а также социальные и нравственные функции религиозных учений. В целом статья раскрывает теоретическое и методологическое значение мусульманского научного наследия для развития современной сравнительной религиоведения и общей науки о религии.

Ключевые слова: мусульманские учёные, исследование религий, методология религиоведения, историко-сравнительный метод, источниковедение, эмпирический подход, Абу Райхан Беруни, Шахристани, Ахмад Шалаби, подходы современных мусульманских учёных.

KIRISH

Bugungi globalashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida dinlararo muloqot, bag'rikenglik va o'zaro tushunishni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turli din va e'tiqod vakillari o'rtasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy, madaniy hamda mafkuraviy jarayonlarni chuqur va xolisona tahlil qilish uchun dinlarni ilmiy asosda o'rganish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi uslublarini o'rganish zamonaviy dinshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Islom sivilizatsiyasi tarixida musulmon olimlari nafaqat islom aqidasi va fiqhini, balki boshqa dinlar va diniy oqimlarni ham ilmiy, tanqidiy va qiyosiy asosda o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur Moturidiy, Ibn Hazm, Shahristoniy, Farobiy kabi allomalar dinlarni o'rganishda manbalarga tayangan holda, obyektivlik, adolat va ilmiy halollik tamoyillarini ustuvor qo'yg'alar. Ularning asarlarida diniy ta'limotlar tashqi baholashsiz, balki ichki manbalari va e'tiqodiy asoslari orqali tahlil qilingan. Bu yondashuv hozirgi zamon dinshunoslik metodologiyasi uchun ham muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni fuqarolarning e'tiqod erkinligini, dinlararo tenglik va bag'rikenglik tamoyillarini kafolatlaydi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023). Ushbu qonunda diniy qarashlar majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmasligi, barcha konfessiyalarning qonun oldida tengligi hamda diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy me'yorlar asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Bu tamoyillar o'z mohiyati jihatidan musulmon olimlarining tarixiy ilmiy yondashuvlari bilan uyg'unlik kasb etadi.

Islom ilmiy merosida dinlarni o'rganish jarayoni majburlash, kamsitish yoki biryoqlama baholash asosida emas, balki ilmiy dalil, mantiqiy tahlil va adolat mezonlari asosida olib borilgan. Abu Rayhon Beruniy, Abdulkarim Shahrisoniy, Ahmad Shalabiy, Ibn Hazm kabi allomalar boshqa din va e'tiqod vakillarining qarashlarini ularning o'z manbalariga tayanib o'rganishni muhim deb bilganlar. Bu uslub hozirgi kunda qonun bilan mustahkamlangan vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglik tamoyillarining tarixiy ildizlari mavjud ekanini ko'rsatadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda diniy bilimlarning yetarli darajada ilmiy asosda berilmasligi turli noto'g'ri talqinlar, diniy mutaassiblik va ekstremistik qarashlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi uslublarini o'rganish va ularni zamonaviy huquqiy me'yorlar, xususan, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun bilan qiyosiy tahlil qilish talabalarida diniy masalalarga nisbatan mas'uliyatli, qonuniy va ilmiy yondashuvni shakllantiradi.

USLUBLAR

Dinlarni ilmiy asosda tadqiq etish insoniyat tafakkurining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Islom sivilizatsiyasi doirasida shakllangan ilmiy an'ana doirasida musulmon olimlari nafaqat o'z dinini, balki boshqa dinlar va e'tiqod tizimlarini ham chuqur, tizimli va maqsadli ravishda o'rganib kelganlar. Bu jarayonda ular muayyan metodologik yondashuvlarga tayangan bo'lib, mazkur uslublar keyinchalik "dinshunoslik" ('ilm al-adyan) fanining shakllanishiga zamin yaratgan. Musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi uslublari tarixiy, qiyosiy, fenomenologik va tanqidiy yondashuvlarni o'z ichiga olgan holda, ilmiy xolislik va manbaga sodiqlik tamoyillariga asoslangan. Ushbu bo'limda musulmon olimlarining dinlarni o'rganishda qo'llagan asosiy ilmiy uslublari yaxlit, tizimli va akademik nuqtai nazardan bayon etiladi. Matn klassik va zamonaviy islomshunoslik adabiyotlari, ishonchli

ilmiy manbalar hamda xalqaro akademik tadqiqotlarga tayangan holda yoritiladi.

Musulmon olimlari dinlarni tadqiq etishda eng ko'p qo'llagan asosiy metodlardan biri tarixiy-tasviriy uslub hisoblanadi. Bu yondashuv dinlarning paydo bo'lishi, tarixiy shakllanishi, asosiy e'tiqodiy g'oyalari, marosim va ibodatlar hamda jamiyatdagi o'rni va ta'sirini izchil bayon etishga asoslanadi. Ushbu uslubda muallif avvalo, tadqiq etilayotgan din haqida aniq ma'lumotlarni keltiradi, so'ngra ularni tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy o'zining mashhur "Kitāb al-Āthār al-Bāqiya" va "Tahqīq mā li-l-Hind" asarlarida hind diniy qarashlari, urf-odatlar va falsafiy tizimlarini batafsil tasvirlab, ularni tarixiy va madaniy kontekstda izohlaydi. Beruniy boshqa din va madaniyat vakillarining e'tiqodlarini imkon qadar ularning o'z qarashlari asosida tushuntirishga harakat qilgan. Bu holat tarixiy-tasviriy uslubning xolislik tamoyiliga asoslanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, al-Mas'udiy, Ibn al-Nadim va al-Shahrisoniy kabi olimlar ham turli dinlar, mazhablar va firqalarning tarixiy rivojini izchil tasvirlab berganlar. Ayniqsa, al-Shahrisoniyning "al-Milal wa an-Nihal" asari dinlar va e'tiqod tizimlarini tarixiy va doktrinal jihatdan o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Qiyosiy uslub musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi eng muhim ilmiy yondashuvlaridan biridir. Bu metod dinlarning e'tiqodiy asoslari, muqaddas matnlari, ibodat shakllari va axloqiy tamoyillarini o'zaro solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Qiyosiy yondashuvda muallif bir dinni mutlaq ustun yoki haq deb da'vo qilishdan ko'ra, ilmiy mezonlar asosida qiyosiy tahlil olib boradi.

Abu al-Hasan al-Amiriy, Ibn Hazm va Fakhriddin ar-Roziy kabi olimlar qiyosiy metoddan keng foydalanganlar. Ibn Hazmning "al-Fasl fi-l-Milal wa-l-Ahwa' wa-n-Nihal" asari yahudiylilik, nasroniylilik va boshqa e'tiqod tizimlarini Qur'on va aql mezonlari asosida qiyosiy tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Unda muallif dalillarga tayanib, mantiqiy tahlil orqali xulosalar chiqaradi. Qiyosiy uslub musulmon olimlariga boshqa dinlarning ichki mantiqiy tizimini tushunish, ularning muqaddas matnlariga hurmat bilan yondashgan holda ilmiy baho berish imkonini yaratgan. Bu yondashuv zamonaviy dinshunoslik fanida ham muhim metodologik asos sifatida e'tirof etiladi.

Fenomenologik uslub dinni tashqi baholashdan ko'ra, uni e'tiqod egalari qanday idrok etishini tushunishga qaratilgan. Musulmon olimlari bu yondashuvni an'anaviy tarzda to'liq nazariy shaklda ifoda etmagan bo'lsalar-da, amaliy jihatdan ko'plab asarlarida fenomenologik elementlardan foydalanganlar. Bu uslubda diniy tajriba, marosim va e'tiqodlar ularning

ichki ma'nosi va inson ruhiyati bilan bog'liqligi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Masalan, tasavvufiy asarlarda boshqa din vakillarining ibodat va ruhiy tajribalariga nisbatan bag'rikenglik va tushunishga asoslangan munosabat kuzatiladi. Zamonaviy musulmon olimlaridan Ahmad Shalabiy, Muhammad Arkoun fenomenologik yondashuvni dinshunoslik doirasida ilmiy asoslab bergan. U dinlarni insonning ilohiy haqiqatga bo'lgan umumiy intilishi sifatida ko'rib, ularni o'rganishda konfessional chegaralardan yuqori turuvchi ilmiy mezonlarni taklif etgan. Tarixiy-tanqidiy uslub musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi muhim yondashuvlaridan biri bo'lib, u manbalarni tanqidiy tahlil qilishga asoslanadi. Bu metodda muqaddas matnlar, rivoyatlar va tarixiy ma'lumotlar ularning ishonchligi, kelib chiqishi va mazmuni nuqtai nazaridan tekshiriladi. Hadishunoslik va tafsir ilmlarida shakllangan isnod va matn tanqidi usullari keyinchalik boshqa dinlar manbalarini o'rganishda ham qo'llanilgan.

NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi uslublari tahlil qilinar ekan, bir qator muhim ilmiy natijalarga erishildi. Ushbu natijalar nafaqat tarixiy-ilmiy merosni anglash, balki zamonaviy dinshunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim metodologik xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari musulmon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar tizimli, izchil va ko'p qirrali ilmiy metodologiyaga ega ekanini ko'rsatdi.

Birinchidan, tarixiy-tasviriy uslub asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, musulmon olimlari dinlarni o'rganishda faktologik aniqlik va tarixiy kontekstga katta ahamiyat berganlar. Ular dinlarning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy hayotdagi o'rnini batafsil qayd etish orqali obyektiv ilmiy manzara yaratishga intilganlar. Tadqiqot natijalari Abu Rayhon Beruniy, al-Mas'udiy va al-Shahrastoni kabi olimlar asarlarida boshqa dinlarga nisbatan xolis va nisbatan neytral yondashuv mavjud ekanini tasdiqlaydi. Bu holat musulmon ilmiy an'anasida diniy tadqiqotlar faqat polemik xarakterga ega bo'lmaganini, balki akademik yo'sinda shakllanganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, qiyosiy (komparativ) uslub bo'yicha olingan natijalar musulmon olimlarining dinlarni solishtirishda qat'iy ilmiy mezonlarga tayanganini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida Ibn Hazm, al-Amiriy va Fakhriddin ar-Roziy asarlarining tahlili shuni aniqladiki, ular e'tiqodiy masalalarda nafaqat Qur'on va hadisga, balki mantiqiy dalillarga ham tayanib xulosalar chiqarganlar. Natijalarga ko'ra, musulmon

olimlari dinlararo o'xshashlik va farqlarni aniqlash orqali umumiy ilohiy g'oyalar va axloqiy qadriyatlarni ajratib ko'rsatishga muvaffaq bo'lganlar. Bu esa qiyosiy dinshunoslikning islomiy modelini shakllantirgan.

Uchinchidan, fenomenologik yondashuvga oid natijalar shuni ko'rsatdiki, musulmon olimlari diniy hodisalarni faqat tashqi baholash bilan cheklanmagan, balki e'tiqod egalari nuqtai nazarini tushunishga intilganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tasavvufiy tafakkur va ma'rifiy asarlarda boshqa din vakillarining ruhiy tajribalariga nisbatan bag'rikenglik va tushunishga asoslangan yondashuv mavjud bo'lgan. Zamonaviy olim Ismoil Roji al-Faruqi ilgari surgan metodologiya esa bu yondashuvni nazariy jihatdan mustahkamlab, uni zamonaviy ilmiy tadqiqotlar darajasiga olib chiqqan.

To'rtinchidan, tarixiy-tanqidiy uslub bo'yicha olingan natijalar musulmon olimlarining manba tanqidiga yuqori darajada e'tibor berganini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida hadis ilmidagi isnod va matn tanqidi metodlari boshqa dinlarning muqaddas matnlarini o'rganishda ham qo'llanilganligi aniqlandi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari musulmon olimlari uslublarining integrativ xususiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Ya'ni, ular birgina metod bilan cheklanib qolmagan, balki tarixiy, qiyosiy, fenomenologik va tanqidiy yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirganlar. Bu holat musulmon dinshunoslik an'anasining moslashuvchan va universal xarakterga ega ekanini isbotlaydi. Shuningdek, natijalar shuni ko'rsatdiki, musulmon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar zamonaviy dinshunoslik fanining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda qo'llanilayotgan ko'plab ilmiy metodlar, xususan, qiyosiy va fenomenologik yondashuvlar, o'z ildizlarini aynan islomiy ilmiy an'adan olganini kuzatish mumkin. Umuman olganda, tadqiqot natijalari musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi uslublari ilmiy asoslangan, tizimli va zamonaviy akademik talablar bilan uyg'un ekanini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar dinshunoslik sohasida olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

IX-XII asrlar jahon sivilizatsiyasi tarixida ilm-fan, madaniyat va tafakkur taraqqiy etgan muhim davrlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, islom dunyosida bu davr "Islom uyg'onish davri" sifatida e'tirof etilib, falsafa, tabiiy fanlar, tarixshunoslik, fiqh, kalom va dinshunoslik sohalarida salmoqli ilmiy yutuqlarga erishildi. Mazkur davrda dinlarni ilmiy asosda o'rganish, ularni

taqqoslash, tahlil qilish va tizimlashtirishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi (Hodgson, 1974:25–30). Natijada dinlarni tadqiq etishning o'ziga xos ilmiy an'analari shakllandi va musulmon olimlari bu jarayonda yetakchi o'rin egalladilar.

Islom dinining paydo bo'lishi va qisqa vaqt ichida keng hududlarga tarqalishi musulmonlarni turli dinlar, e'tiqodlar va falsafiy oqimlar bilan bevosita muloqotga kirishishga majbur qildi. Yahudiylilik, xristianlik, zardushtiylik, buddaviylik, hind diniy-falsafiy ta'limotlari hamda mahalliy e'tiqodlar bilan uchrashuv musulmon mutafakkirlarida boshqa dinlarni bilish va tushunishga bo'lgan ilmiy qiziqishni kuchaytirdi. Shu tariqa dinlarni faqat aqidaviy jihatdan rad etish emas, balki ularni ilmiy, tarixiy va mantiqiy asosda o'rganish an'anasi vujudga keldi.

IX asrdan boshlab Bag'dod, Basra, Kufa, Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur kabi ilmiy markazlarda tarjima harakati keng quloq yoydi. Yunon, hind va fors tillaridagi falsafiy va diniy asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Bu jarayon musulmon olimlariga boshqa dinlar va falsafiy tizimlar bilan tanishish imkonini berdi. Tarjima qilingan asarlar asosida yangi ilmiy qarashlar shakllandi, tanqidiy tafakkur rivojlandi va dinlarni o'rganishda dalillarga tayangan yondashuv yuzaga keldi. Mazkur davrda dinlarni tadqiq etish ko'proq bir necha asosiy yo'nalishlarda amalga oshirildi. Birinchidan, tarixiy-tavsifiy uslub bo'lib, bunda turli dinlarning kelib chiqishi, payg'ambarlari, muqaddas matnlari va marosimlari bayon etildi. Ikkinchidan, taqqoslama uslub rivojlandi, ya'ni dinlarning o'xshash va farqli jihatlari solishtirildi. Uchinchidan, tanqidiy-analitik yondashuv shakllandi, bunda diniy aqidalar mantiqiy dalillar asosida tahlil qilindi. To'rtinchidan, polemik uslub keng tarqaldi, ya'ni boshqa din vakillari bilan bahs-munozaralar olib borildi. Musulmon olimlari orasida dinlarni tadqiq etishda alohida o'rin tutgan shaxslar mavjud bo'lib, ular ilmiy xolislik va keng qamrovli tahlil bilan ajralib turadi (Hasanov, 2021:45–48). Ulardan biri Abu Rayhon Beruniydir (973–1048). Beruniy dinshunoslik tarixida betakror o'rin egallaydi (Mukhamedov N., Turambetov N., 2023:105–110). Uning "Hindiston" asari hind diniy-falsafiy qarashlarini chuqur va xolisona tahlil qilgan nodir ilmiy manba hisoblanadi. Beruniy hindlarning diniy marosimlari, e'tiqodlari, ijtimoiy tuzilmasini musulmon nuqtayi nazaridan emas, balki o'sha xalq dunyoqarashi asosida tushuntirishga harakat qilgan. Bu yondashuv zamonaviy dinshunoslikdagi empirik va neytral metodlarga juda yaqin hisoblanadi (Ibn Hazm, 1985:18).

Yana bir muhim olim Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniydir (1086–1153). Uning "Al-Milal va-n-nihal" asari dinlar va mazhablar tarixiga bag'ishlangan

eng muhim manbalardan biridir. Shahrisoniy turli dinlar, mazhablar va falsafiy oqimlarni tizimli ravishda tasniflab, ularning asosiy aqidaviy tamoyillarini bayon etadi. Asarning ahamiyati shundaki, muallif imkon qadar xolislikni saqlashga harakat qilgan va har bir ta'limotni uning tarafdorlari nuqtayi nazaridan yoritishga intilgan. Bu holat ilmiy obyektivlik tamoyilining shakllanganini ko'rsatadi.

IX–XII asrlar Sharq intellektual tarixida dinlarni ilmiy asosda o'rganish jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgan davr hisoblanadi. Bu davrga kelib, musulmon olimlari diniy masalalarni faqat e'tiqodiy yoki apologetik nuqtayi nazardan emas, balki ilmiy, falsafiy va tarixiy yondashuvlar orqali tahlil qilishga intildilar. Natijada dinlarni tadqiq etish alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, keyinchalik mustaqil fan bo'lib rivojlanadigan dinshunoslikka nazariy asos yaratildi. Mazkur davrda musulmon jamiyati ko'p konfessiyali va ko'p madaniyatli muhitda shakllandi. Abbosiylar xalifaligi hududida musulmonlar bilan bir qatorda yahudiylar, nasroniylar, majusiylar, sobiiylar va boshqa diniy guruhlar yashar edi. Davlat boshqaruvi, huquqiy munosabatlar, soliq tizimi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ushbu dinlarning e'tiqodiy asoslari va amaliy qoidalarini bilish zarur bo'ldi. Shu bois dinlarni o'rganish nazariy qiziqishdan tashqari, amaliy ehtiyoj sifatida ham vujudga keldi (Waardenburg, 1999:45).

IX–XII asrlarda dinlarni tadqiq etish jarayonida fiqh, kalom, falsafa, tarixshunoslik va adabiyot fanlari o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlandi. Ayniqsa, fiqh ilmi doirasida boshqa din vakillarining huquqiy maqomi, diniy erkinligi va ijtimoiy munosabatlari muhokama qilindi. Bu esa dinlarni faqat aqida sifatida emas, balki huquqiy va ijtimoiy tizim sifatida o'rganishga zamin yaratdi. Dinlarni tadqiq etishning muhim yo'nalishlaridan biri – kalom ilmi orqali olib borilgan tahlillardir. Mutakallimlar boshqa din va e'tiqodlarning asosiy aqidalarini aniqlab, ularni aql va mantiq mezonlari asosida baholadilar. Bu jarayonda sof diniy matnlarga tayanish bilan birga, ratsional dalillardan ham foydalanildi. Natijada diniy bahslar hissiy tortishuv darajasidan chiqib, ilmiy munozara shakliga ega bo'ldi. Mazkur davrda musulmon olimlari dinlarni tasniflashga ham katta e'tibor qaratdilar. Dinlar vahiyya asoslangan va inson tafakkuriga tayangan ta'limotlarga ajratildi, payg'ambarlik g'oyasi, muqaddas matn tushunchasi va axloqiy tamoyillar mezon sifatida belgilandi. Bu tasniflash dinlarni tizimli o'rganishga imkon berdi va ularni umumiy konsepsiya doirasida tahlil qilishni osonlashtirdi (Mez, 1997:92). IX–XII asrlar ilmiy muhitida dinlararo muloqot va munozaralar keng tarqaldi. Bu munozaralar ko'pincha saroylarda, ilmiy majlislarda va akademik muhitda bo'lib o'tar edi. Bunday bahslar

diniy bag'rikenglik va intellektual ochiqlik muhitini shakllantirdi. Natijada musulmon olimlari boshqa din vakillari bilan ilmiy asosda muloqot qilish tajribasiga ega bo'ldilar. Musulmon olimlarining dinlarni tadqiq etishdagi faoliyati keyinchalik Yevropa ilm-faniga ham ta'sir ko'rsatdi. O'rta asrlarda arab tilidagi ilmiy asarlarning lotin tiliga tarjima qilinishi orqali musulmon dinshunoslik an'analari G'arb ilmiy tafakkuriga singib bordi. Bu jarayon Yevropada solishtirma dinlar tarixi va din falsafasi fanlarining shakllanishiga turtki bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, IX–XII asrlarda musulmon olimlari tomonidan shakllantirilgan ilmiy yondashuvlarning asosiy xususiyati-xolislikka intilish, ratsional tafakkur, manbaga tayanish va tizimli tahlildir. Ushbu tamoyillar bugungi zamonaviy dinshunoslik fanining asosiy metodologik talablariga ham to'la mos keladi (Makdisi, 1981:210–214).

Abdulkarim ibn Abu Bakr Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy XI–XII asrlar musulmon tafakkurining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lib, u dinlar tarixi, kalom, falsafa va ilohiyot sohalarida chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan mutafakkirdir. U taxminan 1086-yillarda Xuroson mintaqasidagi Shahrison shahrida tug'ilgan va dastlabki ta'limini shu hududda olgan. Keyinchalik u o'sha davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo'lgan Nishopurda tahsil olib, mashhur olimlar qo'lida kalom, fiqh, falsafa va mantiq fanlarini chuqur o'rgangan. Shahrisoniyni ilmiy shakllanishida Ash'ariy kalom maktabi muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, u faqatgina mazhab chegaralar bilan cheklanib qolmagan, balki keng dunyoqarashga ega mutafakkir sifatida tanilgan (Shahrisoniy, 2001:15–18). Shahrisoniy ilmiy merosining markazida dinlarni ilmiy asosda o'rganish masalasi turadi. Uning eng mashhur va eng ko'p o'rganilgan asari – “Kitab al-Milal wa al-Nihal” bo'lib, bu asar Sharq ilm-fanida dinlar tarixini tizimli va qiyosiy tarzda yoritgan dastlabki fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Mazkur asar yozilishidan oldin diniy oqimlar haqida asosan polemik, tanqidiy yoki apologetik ruhdagi asarlar mavjud bo'lgan bo'lsa, Shahrisoniy birinchi bo'lib din va firqalarni ilmiy tasniflash, ularning e'tiqodiy asoslarini xolis bayon etish va tarixiy taraqqiyotini ko'rsatishga harakat qilgan. “Al-Milal wa al-Nihal” asarida Shahrisoniy dinlarni faqatgina tashqi belgilariga qarab emas, balki ularning e'tiqodiy manbalari, aqidaviy tizimi va metafizik qarashlari asosida o'rganadi. U dinlarni avvalo ilohiy vahiya asoslangan dinlar va inson aqli mahsuli bo'lgan falsafiy-diniy ta'limotlarga ajratadi. Shu asosda yahudiylilik, xristianlik va islom kabi ilohiy dinlar bilan bir qatorda zardushtiylik, sobi'iylik, braxmanlik, buddaviylik hamda qadimgi yunon falsafiy maktablari ham alohida tahlil qilinadi. Bu yondashuv Shahrisoniyni

